



UDK: 74.2.89.4

Dilmura JO‘RABOYEVA,

Farg‘ona viloyati Qo‘shitepa tumani 40-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi

Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com, Orcid: 0009-0008-8830-2594

Farg‘ona davlat universiteti professori A.Abdumalikov taqrizi ostida

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR IJTIMOY MAS‘ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA GENDER SIYOSATNING IJTIMOY AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy mas‘uliyatini rivojlantirish jarayonida gender siyosatning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda gender tenglik masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda va bu jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Gender siyosatning samarali amalga oshirilishi ayollarning jamiyatdagi o‘rni va rolini mustahkamlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish nafaqat oilaviy barqarorlikni ta‘minlaydi, balki butun jamiyat rivojiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Maqolada gender siyosat doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, ularning bandligini ta‘minlash, ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, ayollar mas‘uliyati, mas‘uliyat, ijtimoiy mas‘uliyat, islohot, fidoyilik, burch, majburiyat va ijtimoiy vazifa.

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируется социальная значимость гендерной политики в процессе развития социальной ответственности женщин в Узбекистане. В настоящее время вопрос гендерного равенства рассматривается как одно из приоритетных направлений государственной политики и становится важным фактором развития общества. Эффективная реализация гендерной политики способствует укреплению роли и положения женщин в обществе, расширению их участия в социальных, экономических и политических процессах. С этой точки зрения повышение социальной активности женщин обеспечивает не только семейную стабильность, но и оказывает положительное влияние на развитие всего общества. В статье рассматриваются проводимые реформы в рамках гендерной политики, в частности программы поддержки женщин, обеспечение их занятости, расширение возможностей получения образования и развитие предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: стратегия, ответственность женщин, ответственность, социальная ответственность, реформы, самоотверженность, долг, обязанность, социальная функция.

THE SOCIAL IMPORTANCE OF GENDER POLICY IN DEVELOPING WOMEN'S SOCIAL RESPONSIBILITY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the social significance of gender policy in the process of developing women's social responsibility in Uzbekistan. Today, the issue of gender equality is considered one of the priority directions of state policy and has become an important factor in societal development. The effective implementation of gender policy contributes to strengthening the role and position of women in society and expanding their participation in social, economic, and political processes.

From this perspective, increasing women's social activity not only ensures family stability but also has a positive impact on the overall development of society. The article highlights reforms implemented within the framework of gender policy, in particular programs supporting women, ensuring their employment, expanding access to education, and developing entrepreneurial activities.

Keywords: strategy, women's responsibility, responsibility, social responsibility, reform, dedication, duty, obligation, social function.

Kirish. O‘zbekiston – o‘zining boy tarixiga va madaniyatiga ega bo‘lgan davlat. Ma‘naviy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda ayollar roli har doim muhim bo‘lib kelgan. Shunday ekan, ayollarning ijtimoiy mas‘uliyatini rivojlantirish va gender tengligini ta‘minlash mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Gender siyosati – bu ayollar va erkaklarning huquqlari, imkoniyatlari va resurslaridan teng foydalanishini ta‘minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to‘plamidir. O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar juda muhimdir.

Bugungi kunda ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta‘minlash maqsadida mo‘ljallangan dasturlar va siyosatlar ishlab chiqilmoqda.

Ayollarning ijtimoiy mas‘uliyatini rivojlantirish gender siyosatining asosi sifatida ularning ta‘lim olishini, kasb-hunar egallashini va biznes faoliyatini rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Oliy ta‘lim muassasalarida yuz berayotgan gender tengligi uchun tadbirlar, ayollarga maxsus kurslar, treninglar o‘tkazish — ularning bari ayollarning qobiliyatlari va salohiyatlarini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ayollarning mas'uliyatini oshirish, islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish kabi masalalarni tadqiq etishda ayollar mas'uliyati va faolligi tarixiy davrlarda turli dinamikada rivojlangan. Aristotel, I. Kant, F. Gegel, R. Dekart, Platon, E. Fromm kabi mutafakkirlar o'zlarining ilmiy asarlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ayollarning jamiyat hayotida tutgan o'rni xususida siyosiy-falsafiy g'oyalarni ilgari surgan bo'lib, bu mavzu doirasidagi muammolarni o'rganishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlat tadqiqotchilari tomonidan ayollar mas'uliyati, ayollar faolligi hamda ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni bo'yicha qator monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, K. Borman, P. Barrois, M. Vales, E. Koh, S. Haggardlarning izlanishlarida ayollarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyatining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ayollar mas'uliyatini oshirish, ularni ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylantirish masalalari N. Ivanova, M. Martin, I. Groshov, S. Prigojina, L. Popova kabi faylasuf va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonda esa ayollar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish masalalari M. Xolmatova, S. Safayeva, A. Xusainova, R. Ubaydullayeva, S. A. Axrorov (O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish), N. D. Jo'rayeva (O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni), N. M. Muravyova (Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari), K. U. Najmiddinova, F. A. Primova (Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni), H. Nasrullayeva (O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayoni), M. A. Karimova (O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashda islomiy qadriyatlarining o'rni), G. B. O'razaliyeva (Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirish), N. Annaeva (Ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi, xususan, tadbirkorlikdagi faolligi masalalari) kabi olimlar tomonidan ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etilgan.

Tahlillar va natijalar. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash ham juda muhimdir. Kichik biznesni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni yaratish, moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning ijtimoiy mas'uliyati ham ortib bormoqda, chunki o'z biznesiga egalik qilish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ayollarning jamiyatdagi o'rni ham mustahkamlaydi. Shu bilan birga, gender siyosati doirasida ilg'or tajribalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tashkilotlarning ko'magi orqali gender tengligini ta'minlovchi dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu tizimli yondashuv O'zbekistonning global miqyosdagi rivoji uchun ham katta imkoniyat yaratadi.

Ayollarga oid davlat siyosatida oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratis lozim. Oila ichidagi rollari yoki faoliyatlarini davomida ular ko'pincha ijtimoiy bosimlarga duch kelishadi. Shu bois, gender tengligini ta'minlash faqat ayollarga imkoniyat berish emas, balki erkaklarda ham ayolni qadrlash, hurmat qilish hissini shakllantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan gender siyosati jamiyatning barqaror rivoji uchun muhim omil ekanligi shubha tug'dirmaydi.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikka, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarini ta'minlashga bog'liq. O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, gender tengligini

ta'minlash hamda ayollarning jamiyatdagi o'rni mustahkamlash maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda gender siyosati mexanizmlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va turli qonunlar ayollarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ayollarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurashish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish hamda gender tengligini ta'minlash maqsadida maxsus normalar joriy etilgan.

Hukumat tomonidan qabul qilingan dasturlar, masalan, "Ayollarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida"gi qaror ham ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini rag'batlantiradi. Ushbu dasturlarda ayollarning ta'lim olishi, kasbiy tayyorgarlik ko'rishi va ish bilan ta'minlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish uchun mikrokreditlash, biznes institutlarni tashkil etish kabi ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar orqali ayollarga o'z biznesini boshlash imkoniyati yaratilmoqda.

Ayollarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish gender tengligi uchun muhimdir. Ta'lim orqali ayollarning ijtimoiy maqomi oshadi, ularning fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi va jamiyatdagi roli mustahkamlanadi.

Ayollarning sog'lig'i jamiyat salomatligi bilan bevosita bog'liq masala hisoblanadi. Sog'liqni saqlash va kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Ayollarga ish topish imkoniyatlarini yaratish va ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish jamiyatning iqtisodiy faolligini oshiradi. Xususan, texnologiya sohasida bilim olgan ayollarni ish bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Ayollarni siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga rag'batlantirish gender tengligini ta'minlaydi. Parlament va mahalliy hokimiyat organlariga ayollarni saylash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Umuman olganda, O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish uchun samarali gender siyosati mexanizmlari talab etiladi. Bular qatoriga qonunchilik bazasi, davlat dasturlari va ijtimoiy loyihalar kiradi.

Bugungi kunda "gender" atamasi va u bilan bog'liq "gender munosabatlari", "gender tenglik", "gender madaniyat", "gender taraqqiyot", "gender sotsiologiya", "gender psixologiya" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. So'nggi yigirma yil "gender tadqiqotlari davri" sifatida baholanmoqda. Biroq bu jarayon tahlil va sintezni ham talab etadi. Gender munosabatlarini sun'iy tarzda chuqurlashtirish taraqqiyotga xizmat qilmay, aksincha jinslar o'rtasidagi ijtimoiy farqlanishni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli gender tadqiqotlari doimo jinslararo hamkorlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadidan kelib chiqishi lozim.

Ijtimoiy-siyosiy shiorlar ta'sirida ayol va erkak teng huquqli, ular mehnat turini tanlash, fikrlash va oila qurishda erkindirlar, degan qarashlar shakllangan. Aslida ushbu qarashlar negizida ayolni ijtimoiy hayotning subyektiga aylantirishdek ezgu niyat yotadi. Biroq inson million yillar davom etgan tarixiy-madaniy va bioantropologik taraqqiyot mahsuli bo'lib, aynan ushbu omillar ayol va erkakda o'ziga xosliklarni, ular o'rtasida farqlarni keltirib chiqarganini unutib bo'lmaydi.

Qadimgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida gender munosabatlari xususiyatini tasvirlovchi ilk yozma manba "Avesto"da jamiyat va oilaviy munosabatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy qiyofasi borasidagi ma'lumotlar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Unda ta'kidlanadiki, "o'g'il bolalarga nisbatan ham qiz bolalar ilmu donish o'rganishga kirishsinlar. Zero, ular ota-ona yoshiga yetgan vaqtlarida ota xonadonini tartibga solib,

ziyat berib tursa, turmush qurib borgach, bolalar tarbiyasi bilan, kelajak nasl ta'limi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi"[1;84]. Demak, qadimdan avlod tarbiyasi ayol, ona zimmasiga yuklanar ekan, bu mas'uliyatli vazifa nafaqat oila davomiyligi, balki davlat istiqbolini ham belgilovchi omillardan ekanligi anglangan.

O'g'il bolalar qatori qiz bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilib, "ayolni tahqir etmoq yomon amal, nodonlik belgisi"[2;24] sanalgan. Shuningdek, tarixda ayollarga nisbatan zulm ko'rinishlari turli davrlarda bo'lgan. Arabiston yarim orolida qiz bolalarni tiriklayin ko'mish kabi johiliyat davrining shafqatsiz odatlari hukm surgan. Hindistonda eridan mahrum bo'lgan ayol ham tiriklayin gulxanda yoqilishiga mahkum bo'lgan sati udumi mavjud bo'lgan. Qadimgi Xitoyda qiz bolaning tug'ilishi falokat sifatida qaralgan.

Xulosa. O'zbekistonda feministik harakatlar kuzatilmasa-da, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilib chiqqan, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish muammolari bilan shug'ullanayotgan jamoat arboblari va olimlar mavjud. Bundan tashqari, O'zbekistonda davlatning o'zi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy borliqdagi, jamiyat va davlat qurilishidagi faolligini yuksaltirish tashabbuskori bo'lib kelmoqda.

Tarix ko'rsatadiki, feministik harakat xotin-qizlar masalasi unutilgan, davlat boshqaruv tizimida erkaklar ustuvorlik qilgan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faoliyat ko'rsatishiga to'siqlar paydo bo'lganida yuzaga keladi. O'zbekistonda esa ushbu to'siqlarni bartaraf etishga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga davlatning o'zi kirishgan.

ADABIYOTLAR

1. Gerodot. Tarix. 9 jildda. – Moskva: Nauka, 1999. – B. 84.
2. Abdullaeva Ya. Qoraqalpog'iston xotin-qizlari: kecha va bugun. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2004. – B. 24.
3. Shimmel A. Jonon mening jonimda. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 173.
4. Nishonova O.D. O'zbek ayollari etnik madaniyatining o'ziga xos ko'rinishlari. // Milliy qadriyat va urf-odatlarni saqlashda ayollarning o'rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2018 yil 22 may. – B. 163.
5. Gryunebaum G.E. Klassik islom. Ocherk istoriyasi (660–1258). – Moskva, 1986. – B. 13.
6. Achilova M.E. Sharqda gender tenglik masalasiga munosabat: tarix va islohotlar. // Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi roli va gender tengligi mavzusida I-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. – Toshkent: "Tadqiqot", 2021. – B. 385.
7. Abulqosimov H., Xolmuratova G., Jumaniyozova M. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash masalalari. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 67.
8. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 256.
9. Ijtimoiy himoyaga oid Qur'oni karim oyatlari va hadislaridan namunalari. / Mas'ul muharrir Z. Isломov. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2007. – B. 49.
10. Uchok B. Ayollar – musulmon davlatlarida hukmdorlar. – Moskva: Nauka, 1988. – B. 128.
11. Qaxarova M., Absattorov B.M. (2020). Ethics, ethical criteria and ethical standardsga oid qarashlarning evolyutsiyasi. The Light of Islam, 2020(1), 110–115.
12. Sayyida Ismat ad-din Karkar. Qur'on oyatlarida ayol. – Tunis: "Tab' bimasna' al-kitob lish-shirkat at-tunisiya lit tavzi", 2004. – 72 bet.
13. Jabborov S. Musulmon huquqi va odat normalari. – Toshkent, 2001. – B. 47.
14. Yusupova N. (2020). Islomiy huquqda nikoh shartnomasi muhim shartlari. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 36–48.
15. Ismailova Z., Choriev R., Musurmanova A., Aripjanova M. (2020). Universitet o'qituvchilarini malaka oshirish kurslarida tayyorlash metodlari. Journal of Critical Reviews. <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.85>
16. Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2007. (Tarjima: Shoahmad Mutalov, Fulbright Scholar 2001–2002. BMT Taraqqiyot Dasturi, 2007). – B. 16.
17. Hamidova M. O'zbekiston davlat va huquqi tarixi. – Toshkent: TDYUI, 2005. – B. 27–28.